

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



YAPON SHAHAR MADANIYATI VA ADABIYOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI

*Gulnora Qosimova**O'qituvchi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Tokugava davri, shahar madaniyati, chyonin bungaku, she'riyat, xaykay, dramaturgiya, kabuki teatri, jyoruri qo'g'irchoq teatri, jidaymono, sevamono pyesalari.

Annotatsiya: Maqola yapon adabiyoti tarixidagi eng qiziqarli davrlardan biri bo'lmish Tokugava davri va uning tarkibiga kiruvchi Genroku davri adabiy jarayonlarining umumiy tahliliga bag'ishlangan. Mamlakat tarixidagi mazkur davrda Yaponiya yopiq eshiklar siyosatini olib bordi, ijodiy faoliyat ziyolilardan harbiylar, harbiylardan shaharliklar qatlamiga qarab yoyildi. Mazkur davr asosan shahar madaniyati va adabiyotining jadal rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Tijorat bosmaxonalari rivojlandi va belletristika hamda she'riyat taraqqiy etdi, aktyor va qo'g'irchoqlar ishtirokidagi teatr ommalashdi. "Shaharliklar adabiyoti"ning shakllanishi natijasida nazmda "xaykay" janri, dramaturgiyada "kabuki" va "jyoruri" kabi teatr turlari yuzaga keldi va ular uchinchi qatlam vakillari hayotini aks ettirdi. Aynan mazkur davr yapon adabiyotini o'rta asrlardan yangi davrga o'tish oralig'idagi muhim ko'prik vazifasini o'tadi. Shu maqsadda, Tokugava davri yapon adabiyotida yuz bergan adabiy jarayonlarni o'rganish nafaqat o'rta asr, balki yangi davr kunchiqar mamlakat adabiyotini yanada yaxshiroq tushunib yetishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada dastlab XVII asr Yaponiyada yuzaga kelgan siyosiy-ijtimoiy vaziyat va uning o'ziga xos jihatlari to'g'risida so'z boradi. Shahar madaniyatining shakllanishi va uning omillari tahlil etilib, shahar madaniyati zamirida shahar adabiyotining yuzaga kelish jarayonlari yoritiladi. Xususan, Tokugava davrida "chyonin bungaku" ("shaharliklar adabiyoti") nomi bilan saqlanib qolgan adabiyotning xususiyatlari ochib beriladi. So'ng, xaykay she'riyatining shakllanishi va uning nazmda asosiy janrlardan biri sifatida qaror topish sharoitlari tahlil qilinadi. Genroku davrida vujudga kelgan ikki xil teatr –

“kabuki” va “jyoruri” teatrlarining badiiy jihatlari, ularning shahar madaniyati va adabiyotining shakllanishida tutgan oʻmi toʻgʻrisida ham tahliliy mulohazalar keltiriladi.

FORMATION PROCESSES OF JAPANESE URBAN CULTURE AND LITERATURE

Gulnara Kasimova

*Teacher, doctor of philosophy (PhD) in philological sciences,
Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Tokugawa period, townsmen culture, chonin bungaku, poetry, haikai, dramaturgy, kabuki theater, joruri puppet theater, jidaimono, sewamono.

Abstract: The article is devoted to a general analysis of the literary processes of the Tokugawa period and the Genroku period, which is one of the most interesting periods in the history of Japanese literature. During this period of the country's history, Japan pursued a policy of isolation, creative activity spread from the intelligentsia to the military, from the military to the townsmen strata. This period is mainly characterized by the rapid development of townsmen culture and literature. Commercial printing developed, fiction and poetry flourished, and theater involving actors and puppets became popular. As a result of the formation of "townsmen literature", the genres of "haikai" appeared in poetry, "kabuki" and "joruri" in dramaturgy, reflecting the life of representatives of the third class. It is this period that serves as an important bridge between the transition of Japanese literature from the Medieval period to the Modern era. Thus, the study of the literary processes that took place in the Japanese literature of the Tokugawa period is important for a better understanding of the country's literature, not only of the Medieval period, but also of the Modern era. The article primarily refers to the political and social situation in Japan in the 17th century and its specific aspects. The formation of townsmen culture and its factors are analyzed, and the processes of the emergence of townsmen literature based on townsmen culture are highlighted. In particular, the characteristic features of the literature preserved in the Tokugawa period under the name "chōnin bungaku" ("literature of the townspeople") are revealed. Then the conditions for the formation of haikai poetry and its formation as one of the main genres in Japanese poetry are analyzed. The article provides analytical comments on the artistic aspects of two types of theaters - "kabuki" and "joruri" theaters, which arose during the Genroku period, and their role in the formation of urban culture and literature.

ПРОЦЕССЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЯПОНСКОЙ ГОРОДСКОЙ КУЛЬТУРЫ И ЛИТЕРАТУРЫ

Гульнора Касимова

*Преподаватель, доктор философских наук (PhD) филологических наук,
Ташкентский государственный университет востоковедения
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: системный подход, специальная система терминологии, строительное поле, организационные правила.</p>	<p>Аннотация: Появление комплексной системы подготовки нового поколения глобально конкурентоспособных педагогов требует дальнейшего совершенствования подготовки высококвалифицированных педагогов, досконально освоивших зарубежный спрос. В данном исследовании большое значение имеет лексикологический анализ терминов в области построения в английском языке и овладение методикой обучения. На основе сравнения образовательных систем Японии и Худжанда в области строительства были выявлены преимущества и недостатки системы обучения студентов нефилологического образования зарубежным строительным терминам и ряду педагогических подходов.</p>
---	--

KIRISH

Sarkarda Tokugava Ieyasu (1543-1616) 1600-yilda Sekigaxarada hokimiyat uchun olib borilgan hal qiluvchi jangda raqiblarini tor-mor etdi va mayda mustaqil hokimiyatlarga bo'linib ketgan Yaponiyani o'z qo'l ostida birlashtirdi. 1603-yilda o'zini bosh harbiy qo'mondon – “shyogun” deb e'lon qilgan Tokugava Ieyasu mutlaq hukmronligining amaldagi tasdig'i sifatida boshqaruv hokimiyatini imperator qarorgohi – poytaxt Kiotodan Edo¹ga ko'chirdi². Ieyasu asos solgan sulola ikki asrdan ko'proq, 1868-yilgacha, ya'ni Meyji inqilobigacha hukmronlik qildi. 1603-1868-yillarni o'z ichiga olgan mazkur davr yapon tarixida sulola nomi bilan Tokugava yoki shyogun qarorgohi bo'lgan shahar nomi ostida Edo davri deb yuritiladi³.

Uzoq davom etgan ichki urushlarga yakun yasalib, mamlakatda tinchlik o'rnatilganidan so'ng, hukumat tomonidan iqtisodni rivojlantirish yo'lida erkin savdoning qo'llab-quvvatlanishi ichki bozorning shakllanishiga zamin yaratdi. Jadal iqtisodiy rivojlanish natijasida hunarmandchilik va savdo-sotiq markazlari hisoblangan yirik shaharlarning tez sur'atlarda o'sib borishi bilan ijtimoiy hayot sahnalariga shaharliklar – hunarmand, savdogar, mayda xizmatchi va boshqalar chiqa boshladi.

Tokugava sulolasi hukmronligining ilk yillaridan boshlab bor kuch-qudratini markazlashgan hokimiyatni mustahkamlashga, undagi siyosiy barqarorlikni ushlab turishga yo'naltirdi va mamlakatda qattiq tartib-intizom o'rnatdi. Feodalizmga asoslangan jamiyat aholisini ijtimoiy kelib chiqishiga qarab sinflarga bo'lish mazkur maqsadni amalga oshirish yo'lidagi ilk qadam bo'ldi. Jamiyat ijtimoiy tarkibi rasman shi (harbiy zodagonlar, samuraylar),

¹ Edo – hozirgi Tokio shahrining qadimgi nomlanishi.

² Grisheleva L.D. Formirovaniye yaponskoy natsionalnoy kultury. Kones XVI nachalo XX veka. – M., 1986. – S. 16.

³ Kirkvud K. P. Rennesans v Yaponii. – M., Nauka, 1988. – S. 18.

no (dehqonlar), ko (hunarmandlar) va shyo (savdogarlar) qatlamlari ketma-ketligiga asoslangan iyerarxik tizimda mustahkamlab qo'yildi⁴.

Shaharning kapitalistik jihatdan o'sib borayotgan qatlamning qudratini aks ettirmagan ushbu tizimda harbiy zodagon – samuraylar tabaqasi hali-hanuz imtiyozga ega qatlam mavqeini saqlab qoldi⁵. Ularning barchasi, ya'ni katta yer egalari - "daymyo"lardan tortib, to kichik feodallar – "shyomyo"largacha shyogunlik siyosatini amalga oshirishga xizmat qildi. Aynan qudratli Tokugava sulolasining shyogunlari imperatorni hokimiyatdan siqib chiqarib, mamlakat boshqaruvini o'z qo'llariga olgan edi. Amalda hokimiyat harbiy qo'mondon tomonidan boshqarilgan Tokugava davri Yaponiyasida imperatorning alohida imtiyozlari faqatgina rasmiy xarakter kasb etgan xolos. Uning vakolatlari diniy va zodagon doiralari xos muayyan marosim, rasm-rusumlarni o'tkazish bilangina chegaralangan.

Hukmron sinflarning asosini tashkil etuvchi harbiy zodagonlar, saroy ayonlari va ruhoniylardan so'ng ikkinchi o'rinda feodal jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchi – dehqonlar turgan. Hunarmandlar va savdogarlar⁶ – shaharliklar tabaqalanishning iyerarxik pog'onalarining eng quyisidagina joy oldilar. Ular samuraylardan farqli ravishda, har qanday siyosiy huquqlardan mahrum etilgan bo'lishlariga qaramay, o'z qo'llarida katta moddiy mablag'larni to'plaganligi bilan mamlakat hayotida tobora muhim ahamiyat kasb eta boshladilar.

XVII asr boshlarida neokonfutsiylik ta'limoti, xususan, Chju Shi⁷ning axloqiy, siyosiy tizimi Yaponiyaning rasmiy mafkurasiga aylandi⁸. Neokonfutsiylikni asosiy ta'limot sifatida tan olinishi ham jamiyatda yuzaga kelgan markazlashgan hokimiyat va feodal tuzumni mustahkamlash ehtiyojining natijasi edi. Kattalarga, yuqori tabaqa vakillariga bo'ysunish g'oyasi, insonlar ijtimoiy holatidagi tafovutning o'zgarishligi va qonuniyligini targ'ib qiluvchi Chju Shi axloqiy-siyosiy tizimi yapon hukmron kuchlarining qiziqishlariga to'la javob berdi.

Tabaqalashtirish tizimi zamirida yuqori tabaqa vakillariga itoat etish g'oyasi yotuvchi chjushi konfutsiylik ta'limoti asosida yaratilgan feodalizm qonunlari nafaqat qatlamlararo aloqalarning kayfiyatini, balki har bir qatlam ichidagi muomala, yurish-turish qoidalarini ham aniq belgilab berdi. Samuraylarga o'rta asrlardagi feodallar o'rtasidagi jangu jadallar davrida shakllangan va asosida yuqoridagilarga itoat bilan xizmat qilish g'oyasi yotadigan harbiylik shon-sharafi, burchi kodeksi – "bushido"ga so'zsiz rioya etish amr qilib qo'yildi⁹. Butun Tokugava hukmronligida shafqatsiz ekspluatatsiyaga uchragan dehqonlarga esa nafaqat erta sahardan tungacha mehnat qilish majburiyati qo'yilgan, balki jazo qo'rquvi ostida o'zlari yetishtirgan guruchni iste'mol qilish ham man etilgandi.

⁴ Saroy zodagonlari, buddaviylik va shinto ruhoniylari hamda har qanday huquqdan mahrum etilgan sinf – etalar mazkur tizimga kiritilmadi. Batafsil qarang: Griseleva L.D. Formirovaniye yaponskoy natsionalnoy kultury. Kones XVI nachalo XX vv.yeka. – M., 1986. – S.16.

⁵ Markova V., Lvova I. Predisloviye Tikamatsu Monzaemon iyego teatr. – V kn.: Tikamatsu Mondzaemon. Dramy. M., 1963. – S. 6.

⁶ Savdogarlar ilk marotaba alohida qatlamga ajratilgan bo'lsalar-da, ishlab chiqarmaydigan kuch sifatida ijtimoiy tabaqalashtirish tizimining eng qo'yi qatorlariga joylashtirildi.

⁷ Chju Shi (1130-1200) – xitoy faylasufi, qomusiy olim, adabiyotshunos, matnshunos va konfutsiylik ta'limotiga tegishli asarlarning sharhlovchisi, pedagog, konfutsiylik ta'limotining asosiy vakili. Aynan Chju Shi konfutsiylikning nazariy asoslarini ishlab chiqdi va uni tizimlashtirgan shaklga ega ta'limotga aylantirdi. Vaqt o'tishi bilan konfutsiylik ushbu ko'rinishida Xitoydan tashqari, Yaponiya va Koreyada ortodoksalmafkura sifa tida qaror topgan edi (Batafsil qarang: Kobzev A.I. Chju Si // Duxovnaya kultura Kitaya: ensiklopediya: v 5 t. — M.: Izd. firma "Vostochnaya literatura" RAN, 2006. – S. 593-596.).

⁸ Ienaga S. Istoriya yaponskoy kultury. – M., Progress, 1972. – S. 144.

⁹ Griseleva L.D. Formirovaniye yaponskoy natsionalnoy kultury. Kones XVI nachalo XX vv.yeka. – M., Nauka, 1986. – S.133.

Samuray va dehqonlarning bunday sharoitida shaharliklarning hayoti nisbatan erkinroq ko'rinar edi. Hukumat savdogarlar qatlamining o'sib borayotgan iqtisodiy kuchi va nufuzidan xavfsiragan holda uni iloji boricha chegaralab, siquvga olishga harakat qildi. Shu maqsadda, shaharliklarga shoyidan kiyim kiyish, hashamatli uylarda yashash, zeb-ziynat buyumlarini xarid qilish, eng xaridorbop mollardan oshiqcha foyda olishni man etuvchi maxsus farmonlar e'lon qilindi¹⁰. Biroq bunday choralar savdo-sotiq kapitalining o'sishiga, savdogarlar yosh qatlamining ravnaqiga jiddiy ta'sir o'tkaza olmadi. Harbiy feodallar tez orada savdogarlarga iqtisodiy jihatdan qaram bo'lib qoldilar. Badavlat savdogarlar hatto samuray zodagonlarining eng davlatmand vakillarida hasad hissini uyg'ota oladigan dabdabali hayot kechira boshladi.

Savdo-sotiq, iqtisodiy munosabatlar, portugal savdogarlar orqali kirib kelayotgan xristianlik dini va uning ta'siridan feodal tuzumni saqlab qolish maqsadida, hukumat mamlakatni "yopish" va tashqi dunyodan yakkalanish siyosatini qo'lladi. 1640-yilga kelib mamlakatdan barcha ajnabiylar (golland va xitoyliklardan tashqari, lekin ular bilan ham savdo aloqalari chegaralangan edi) haydab chiqarildi, xorijiy kemalarga Yaponiyaning qirg'oqlariga yaqinlashish taqiqlab qo'yildi. O'z mamlakatini tark etishga uringan yapon fuqarolari o'lim jazosiga tortildi. Chet elliklar bilan har qanday savdo yoki diniy aloqalar ham taqiqlandi. Yevropa kitoblarini, ayniqsa, xristianlikning yoyilishiga xizmat qiluvchi diniy kitoblarni saqlaganlar ham o'lim jazosiga tayinlandi¹¹. Shunday bo'lishiga qaramay, savdogarlarga katta boyluk olib kelgan maxfiy dengiz savdosi to'xtab qolmadi. O'sha davrda eski feodal tuzum hali ham kuchli bo'lsa-da, yapon shaharliklarining aksariyat qismi yangiliklarga intila boshladi.

Feodal tuzumning ushbu og'ir kishanlariga qaramay, mamlakatdagi osoyishtalik Yaponiyaning iqtisodiy rivojidan tashqari, madaniy taraqqiyoti uchun ham qulay sharoit yaratdi. Aholi savodxonligini oshirish va kitob nashriyatini qo'llab-quvvatlagan Tokugava Ieyasu hukmronligi davrida Yaponiya tarixida ilk bora shaharning keng qatlamlari uchun ta'lim va madaniyatga yo'l ochildi. Ommani ma'rifatga yo'naltirish maqsadida butun mamlakat bo'ylab ham davlat, ham xususiy maktablar tashkil etildi. Bunday maktablarda imtiyozga ega bo'lgan qatlamlar vakillari bilan bir qatorda, oddiy shaharliklarning farzandlari ham ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ldilar¹².

Tez orada ham poytaxtdagi, ham boshqa hududlardagi samuraylar uchun bir qator konfutsiylik maktablari joriy etildi. Ular butun mamlakat bo'ylab savodxonlikning tarqalishi va ma'rifatning o'chog'lariga aylandi. Mazkur maktablar samuraylar qatlami uchun tashkil qilingan

¹⁰ Sheldon Ch.D. The Rise of the Merchant Class in the Tokugawa Japan (1600-1868). – N. Y., Russell & Russell, 1958. – P. 31.

¹¹ Asosan ikki omil, ya'ni shaharliklarning o'sib borayotgan iqtisodiy qudrati va yaqin orada kirib kelgan xristianlik dinining siyosiy kuchga ega bo'la boshlashi 1641-1853-yillar mobaynida Yaponiyaning tashqi dunyodan yakkalanish, ya'ni "sakoku" (tarj. "kishanlangan mamlakat") siyosatini olib borishiga sabab bo'ldi. Gap shundaki, XVII asrda Portugaliya, Angliya, Ispaniya, Italiya va Gollandiya bilan tashqi savdo aloqalarining olib borilishi port shaharlarida badavlat shaharliklar qatlamining yuzaga kelishiga, ularning o'sib borayotgan iqtisodiy qudrati bilan feodal tizimga zarba bera oladigan kuchga aylanishiga olib kelgan edi. Bundan tashqari, chet ellik savdogarlar bilan bir qatorda xristianlik dini targ'iboti bilan shug'ullangan golland iyezut missionerlari ham Yaponiyaga kirib kela boshladi. Tez orada, xalq orasida xristianlik dinining keng yoyilishiga erishgan missionerlar din targ'iboti bilan chegaralanmay, birin-ketin feodallar o'rtasidagi nizolarga aralashishga va dehqonlar qo'zg'onlarida qatnashishga kirishdilar. 1637-1638-yillarda Shimabarada bo'lib o'tgan va yapon tarixida eng yirik dehqonlar (asosan xristian dinini qabul qilgan yapon dehqonlar) qo'zg'oloni yapon hukmdorlarining mamlakatni barcha ajnabiylarga yopish, tashqi savdo aloqalarini to'xtatish, xristianlik dini va uning targ'ibotchilariga qarshi kurash siyosatini olib borishiga undagan edi (Batafsil qarang: Griseleva L.D. Formirovaniye yaponskoy natsionalnoy kultury. Kones XVI nacha lo XX vv.yeka. – M., Nauka, 1986. – S. 28.).

¹² Ienaga S. Istoriya yaponskoy kultury. – M., Progress, 1972. – S. 152.; Kirkwood K.P. Renaissance in Japan. – T., Tuttle Publishing, 2012. – P. 86-91.

bo'lsa-da, ularda o'zini ilmga bag'ishlash niyatida bo'lgan boshqa qatlamlarning alohida vakillari ta'lim olishiga ruxsat berildi. Shu asnoda harbiylar qatlamining o'qimishli vakillari birin-ketin shaharlik ziyolilar qatlamini to'ldirib bordi.

Oddiy xalqni ma'rifatli qilishda "terakoya" – ibodatxonalar qoshidagi maktablarning qo'shgan hissasini ham ta'kidlash joiz. XVII asrgacha terakoyalar buddaviylik ruhoniylari tomonidan boshqarilgan bo'lib, keyinchalik ular ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, jamiyatning barcha tabaqalariga ta'lim beruvchi shaxsiy maktablarga aylandi.

Yangi poytaxtni mamlakatning nafaqat siyosiy, balki madaniy markaziga aylantirishni istagan Tokugava Ieyasu maktablarni rivojlantirish, qadimgi qo'lyozmlarni yig'ish, kutubxonalar tashkil etish, Edoga mohir hunarmand, olim, rassom, adib va shu kabi boshqa ijodkorlarni jalb qilishga katta e'tibor qaratdi¹³.

Savodning o'sib borishi bilan kitoblarga bo'lgan talab kuchaydi. XVI asrning oxiri XVII asrning boshlarida hokimiyat o'z e'tiborini kitob bosib chiqarishga qaratdi va mazkur soha rivojida sezilarli siljishlar kuzatildi. Endi 100 nusxadan ko'p bo'lmagan miqdorda, qo'zg'aladigan shrift yordamida bosib chiqarilgan qimmatbaho kitob va qo'lyozmalar kitobxonlarning o'sib borayotgan talablarini qondira olmay qolgandi¹⁴. XVII asrning 20-yillarida tijorat bosmaxonalarning yuzaga kelishi bilan ksilografiya (yog'ochga o'yilgan naqsh va undan bosilgan surat) usuli yordamida kitob nashr qilish mamlakat bo'ylab keng tarqaldi¹⁵. Yog'och taxta orqali bosib chiqarilgan kitoblar ko'p adadda nashr ettirila boshladi va nisbatan arzonroq, shahar o'rtasida qatlam aholisi uchun hamyonbop narxlarda sotilishi yo'lga qo'yildi.

Tokugava sulolasi hukmronligi yillarida kitob mahsulotlari orasida 「万葉集」 ("Mingta barg yig'indisi", 759)¹⁶, 「伊勢物語」 ("Isedan qissalar", X asr)¹⁷, 「大和物語」 ("Yamato

¹³ Galperin A.L. Ocherki sotsialno-politicheskoy istorii Yaponii v period pozdnego feodalizma. M., 1960. – S. 32

¹⁴ Tarixga nazartashlaydigan bo'lsak, Yaponiya da tijorat bosmaxonalarning faoliyati taxminan 1609-yilda, xitoy she'riyatining mashhur namunasi "Kobun shinpo" ("Eski adabiyotning yangi xazinasi") antologiyasi nashri bilan boshlanadi. Bosma nashrlarga bo'lgan talabning ortishi bilan uch yirik savdo-sotiq shaharlari – Kioto, Osaka va Edoning tadbirkorlari tijorat maqsadida nashriyot ishlari bilan shug'ullana boshladilar. Kitob nashr ettirish zodagonlarning ko'ngilochar mashg'ulotidan moddiy foyda olib keluvchi mehnat faoliyati turiga aylanishi uchun birinchi qadam sifatida, harakatlanuvchi bosma harflar o'miga ksilografiya, ya'ni matnlar o'yib yozilgan taxta yog'och yordamida nashr ettirish usuliga qaytish talab qilinar edi. Mazkur sohadagi ortga tashlangan ushbu qadam aksariyat hollarda harakatlanuvchi bosma harflar bilan kitob chop ettirish ksilografiya usuliga qaraganda qimmatga tushishi yoki bo'lmasa, yuz nusxadan ortiqroq nashrlar uchun to'g'ri kelmasligi bilan izohlanadi. Bu avvalambor, yaponlarning estetik qarashlari bilan chambarchas bog'liq. Gap shundaki, kana yapon bo'g'inli alifbosidagi, birinchi navbatda xiraganadagi belgilar bir-biridan alohida bitiladigan xitoy bosma iyerogliflaridan farqli ravishda odatda qo'shib yozilgan. Xiraganada yozilgan matnlarni harakatlanuvchi harflar yordamida nashr ettirilganida, belgilar bir-biridan uzilib qolar va bu xattotlik qo'lyozmalarini o'qishga o'rgangan kitobxonlar uchun xunuk tuyular edi. Kana qo'lyozma belgilari bir xil bo'lmagan (ayrimlari cho'ziq, qolganlari ixcham yozilgan), biroq bosma matnda har bir belgi uchun bir xil hajmdagi joy ajratilganligi bois matnning umumiy ko'rinishi xunuk chiqqan. Ushbu estetik kamchilikni yo'qotish uchun ba'zida bitta bosma harfda ikki yoki uchta kana belgisi joylashtirilgan, biroq bu kutilgan natijani bermas edi. Buning ustiga rasmlar bilan bezatilgan nashrlar, ayniqsa, Nara shahrining nashrlari XVII asrning boshida katta shuhrat qozongan bo'lib, tabiiy ravishda kitobxonlar ham ana shu turdagi rasmlar bilan bezatilgan hamda nafis shriftlar bilan chop ettirilgan kitoblarni kutishar edi. Harakatlanuvchi bosma harflarni qo'llash kitoblarga rasmlarni kiritishga to'sqinlik qilmasdi, biroq butun varaqda ham matn, ham rasmni mujassamlashtirgan yog'och taxtani tayyorlash nisbatan osonroq hisoblangan. XVII asrning 20-yillarida, ksilografiya usuli bilan kitob nashr ettirish ko'lami kengayganida yapon adabiyotining deyarli barcha namunalari ko'p sonli illyustratsiyalar bilan chop etilishi yo'lga qo'yildi (Batafsil qarang: 市古貞次・野間 光辰 「鑑賞 日本古典文学第26巻—御伽草子・仮名草子」 角川書店、1980年。– P. 282-284.).

¹⁵ Lane R. The Beginning of the Modern Japanese Novel: Kana-Zoshi (1600-1682). – "Harvard Journal of Asiatic Studies". Vol. 20, 1957, № 3-4. – P. 645-646.

¹⁶ "Mingta barg yig'indisi" – Nara davri (710-794) da shoir Otomo no Yakamochi (716-785) tomonidan tuzilgan, yapon adabiyotidagi ilk she'riy to'plamlardan biri (Batafsil: Gluskinoy A.Ye. "Manyosyu" kak literaturnyy

to'g'risida qissa", X asr)¹⁸, 「古今和歌集」 (“Qadimgi va yangi yapon she'rlarining to'plami”, X asr)¹⁹, 「土佐日記」 (“Tosadan poytaxtga sayohat kundaligi”, X asr)²⁰, 「源氏物語」 (“Shaxzoda Genji to'g'risida qissa”, XI asr)²¹, 「百人一首」 (“Yuz shoirning yuz she'ri”, 1235)²², 「枕草子」 (“Yostiqdagi qaydlar”, XI asr)²³, 「徒然草」 (“Zerikishdan qaydlar”, XIV asr)²⁴ kabi qadimgi davr va o'rta asr yapon mumtoz adabiyoti namunalari ksilografiya yo'li bilan bosib chiqarilgan nusxalari asosiy o'rinni egalladi. O'zida o'sha davr yapon tilidagi sharhlarni mujassalashtirgan va o'rta qatlam kitobxonlarining keng doirasiga mo'ljallangan mazkur kitoblarning nashr ettirilishi mumtoz adabiyotning ommalashuvida asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qildi.

Shahar hayoti misli ko'rmagan darajada rang-barang kechgan Tokugava davrida savdo-sotiq ko'chalari tezlik bilan kengayib bordi va ko'ngilochar muassasalar, “quvnoq ko'chalar”, teatrlar joylashgan hududlar yuzaga keldi. O'sha davrning yirik shaharlari: Yaponiyaning qadimgi poytaxti, o'z qudrati va nufuzini saqlab qolgan Kioto, yangi shyogun poytaxti Edo, nafaqat jo'shqin savdosi, balki turli ko'ngilochar maskanlari bilan dong taratgan Osaka, chet el savdo kemalariga kirish ruxsat etilgan mamlakatning yagona port shahri Nagasaki – mamlakatning iqtisodiy va madaniy markazlariga aylandi. Shahar jamiyati zaminida nafaqat yapon milliy, balki butun jahon san'ati tarixiga ko'plab yorqin sahifalarni olib kirgan yangi –

pamyatnik. – Manyo'syu (“Sobraniye miriad listyev” v 3-x tomah). T.I.Glav. red. vostochn. Lit., Moskva, 1971. – S.13-64.) .

¹⁷ “Isedan qissalar” – X asrga tegishli va muallifi shoir, rassom va zodagon Arivara no Narixira sifatida ko'rsatiluvchi yapon mumtoz adabiyotining yodgorligi, 125 ta mustaqil qisqa parchalardan tashkil topgan va bir saroy ayonining ishqiy sarguzashtlari haqida hikoya qiluvchi liro-epik to'plam (Batafsil qarang: Konrad N.I. Ocherki yaponskoy literatury. Stati i issledovaniya M., Xud. lit., 1973. – S. 131-152.).

¹⁸ “Yamato to'g'risida qissa” – Muallifi noma'lum, o'zida she'rlar bilan birgalikda, saroy hayoti to'g'risida hikoya qiluvchi 173 ta nasriy parchani mujassamlashtirib, yapon mumtoz adabiyotining yorqin namunalari biriga aylangan liro-epik asar (Batafsil qarang: Yermakova L. M. Yamato-monogatari kak literaturnyy pamyatnik. M., 1982. – S. 3-33.).

¹⁹ “Qadimgi va yangi yapon she'rlarining to'plami” – 922-yilda Xeyan davrining yirik shoirlari – Ki no Surayuki (866-945/946), Ki no Tomonori (845/50-904/7), Oshikochi no Mitsune (859-925) tomonidan tuzilgan va 12 o'ram, 1111 ta she'rdan iborat antologiya (Batafsil qarang: Shirane H., Suzuki T., Lurie D. The Cambridge History of Japanese Literature. Cambridge University P., 2016. – P. 110-121.).

²⁰ “Tosadan poytaxtga sayohat kundaligi” – X asrda shoir, adib va filolog Ki no Surayuki tomonidan sayohat kundaligi janrida, to'liq yapon alifbosida bitilgan ilk kundalik (Batafsil qarang: Goreglyad V.N. Dnevnik i esse v yaponskoy literature X - XIII v. M., 1975. S. – 58-72.).

²¹ “Shahzoda Genji to'g'risida qissa” – saroy adabiyotining namoyandasi, adiba Murasaki Shikibu (978-1014/1016 yoki 1025/1031) tomonidan 1008-yilda yaratilgan va Shahzoda Genjining ishqiy sarguzashtlari to'g'risida hikoya qiluvchi mazkur roman butun yapon adabiyotining durdona asarlaridan biri hisoblanadi (Qarang: Konrad N.I. Ocherki yaponskoy literatury. Stati i issledovaniya. Xud. lit. M., 1973. – S.151-180.).

²² “Yuz shoirning yuz she'ri” – Xeyan (794-1185) davrida ijod qilgan shoir, saroy adabiyotining vakili Fujivara no Teyka (1162-1241) tomonidan tuzilgan she'riy antologiya. Unga Ono-no Komachi, Otomo-no Yakamochi, Arivara no Narixira, Ki-no Surayuki, Michitsuna-no xaxa, Sey Shyonagon, Murasaki Shikibu, Saygyo kabi o'sha davrning ko'zga ko'ringan yuzta adib va shoirlarining bittadan she'ri kiritilgan (Batafsil qarang: “Sto stixotvorennyy sta poetov”: Starinnyy izbornik yaponskoy poezii VII—XIII vv./ Predisl., perevod so staroyap., komment. V. S. Sanovicha; Pod red. V. N. Markovoy. – 3-ye izd., dop. i pererab. – M.-SPb.: Letniy sad; Jurnal “Neva”, 1998. – 288 s.).

²³ “Yostiqdagi qaydlar” – Xeyan davri adibasi, saroy xonimi Sey Shyonagon (966-1025) tomonidan yaratilgan va “zuyxitsu” (tarj. “qalam ortidan”), ya'ni X asr esse adabiyotining durdona namunasi.

²⁴ “Zerikishdan qaydlar” – Kamakura (XII-XIV asrlar) va Muromachi (XIV-XVI asrlar) davri adabiyotining yorqin namoyandasi, shoir va yozuvchi Yoshida no Kenko Xoshi (1283-1350) tomonidan 1330-1331-yillarda yaratilgan esse janridagi asar. Asar adiba Sey Shyonagon (966-1025)ning 「枕草子」 (“Yostiqdagi qaydlar”, X-XI asrlar) va Kamakura davri adibi, shoir Kamo no Chyomey (1154-1216)ning 「方丈記」 (“Hujradan qaydlar”, 1212) asarlari bilan birgalikda Yaponiyaning “uch durdona zuyxitsulari”ni tashkil etadi (Zuyxitsu janri va ushbu asarlari to'g'risida batafsil qarang: Goreglyad V.N. Dnevnik i esse v yaponskoy literature X - XIII v. M., 1975. – 376 s.).

“uchinchi qatlam”, ya’ni shaharliklar madaniyati shakllandi. Ushbu madaniyat xalqning o‘zidan oziqlanar edi. Hunarmand, savdogar, shaharliklardan tashkil topgan oddiy odamlar ommasi ushbu madaniyatning iste’molchilari bo‘lsa, asta-sekin ziyolilar safini to‘ldirib borayotgan sobiq samuraylar va savod chiqarib ulgurgan shahar aholisi uning yaratuvchisiga aylandi.

Mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jabhalarida yuz bergan ushbu o‘zgarishlar badiiy adabiyotga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Tokugava davri yapon adabiyoti bir qator yangi janrlarning yuzaga kelishi, ko‘plab o‘ziga xos va iste’dodli adiblarning sermahsul ijodi bilan ajralib turadi. Aynan mazkur davrdan boshlab adabiyot o‘zining elitarlik xususiyatini butunlay yo‘qotdi²⁵. Avvallari zodagon qatlamlariga xos bo‘lgan sifatlari – mumtoz adabiyotni chuqur o‘zlashtirish, she’riyat bilimidan xabardor bo‘lish kabilari shahar aholisi uchun odatiy holatga aylandi. Badiiy ijod bilan sobiq samuraylar hamda shaharliklardan shakllangan yangi yapon ziyolilari shug‘ullana boshladi va adabiyotga o‘z syujet, dunyoqarash, mafkuralarini olib kirishdi.

Tokugava davrida nimaiki yangilik yaratilgan bo‘lsa, barchasi aynan ana shu uchinchi qatlamdan yuzaga keldi. Ular yozgan asarlar yapon adabiyoti tarixida “chyonin bungaku”, ya’ni “shaharliklar adabiyoti” atamasi bilan yuritiladi²⁶. Yapon shahar adabiyotining rivojlanishi “xaykay” she’riyati, “kanazoshi” va “ukiyooshi” nasri hamda “kabuki” va “ningyo jyoruri” kabi teatr turlarini yuzaga keltirdi. XVII asrning ikkinchi yarmida, ya’ni yapon madaniyati tarixda Genroku (1688-1704)²⁷ nomi ostida mashhur bo‘lgan davrda, Kioto, Osaka va Edo hududlarida, ayniqsa, o‘zining yuqori cho‘qqisiga yetdi.

Darvoqe, shu o‘rinda nazmiy adabiyot va uning taraqqiyoti masalasiga to‘xtalishga zarurat bor. Genroku davrining butun she’riyati o‘zida satira va parodiyani mujassamlashtirgan “xaykay” – “hajviy she’rlar”ining yuzaga kelishi hamda rivoji bilan xarakterlanadi. N.I.Konrad ta’kidlaganidek, aynan xaykay she’rlari o‘zida yapon shaharliklari estetik didi va kayfiyatini yaqqol aks ettirgan ko‘zguga aylandi²⁸. Bu o‘rinda ayni she’riyatning mohiyatini yanada aniqroq tushunish uchun uning shakllanish va rivojlanish jarayoniga qisqacha to‘xtalish o‘rinli bo‘ladi.

5-7-5 ketma-ketligida, 17 bo‘g‘indan tashkil topuvchi qofiyasiz uchlik – xaykay she’rlari tanka²⁹ misralarining uchlik (5-7-5) va ikkilikka (7-7) bo‘linishi natijasida yuzaga kelgan bo‘lib, ushbu tendensiya XIV asrda keng tarqalgan renga³⁰ she’riyatida mustahkamlanib qo‘yilgan edi.

²⁵ Goreglyad V.N. Strana za zaxlopnutoy dveryu. – V kn.: Kirkvud K. P. Rennesans v Yaponii. – M., 1988. – C. 13.

²⁶ 秋山虔・三好行雄「日本文学史」文英堂、1983年。– P. 102.

²⁷ 1688 – 1704, yoki kengroq qilib aytganda, XVII asrning oxirgi choragi – XVIII asrning birinchi choragi.

²⁸ Konrad N.I. Yaponskaya literatura. M., 1974. – S. 54.

²⁹ Tanka (tarj. “qisqa qo‘shiq” yoki “qisqa she’r”) – 5-7-5-7-7 ketma-ketligida 31 bo‘g‘indan iborat beshlik bo‘lib, yapon mumtoz she’riyatining asosiy janrlaridan biri sanalanadi. Xeyan davrida taraqqiyotining cho‘qqisiga yetgan tanka xaykay she’riyati yuzaga kelgunga qadaryapon nazmining mutlaq yetakchi janri hisoblangan (Batafsil qarang: Breslav T.I. Ocherki yaponskoy poezii IX-XVII vekov. Vostochnaya literatura RAN, Moskva. 1994. – S. 5-6.).

³⁰ Renga (tarj. “zanjir bo‘lib tizilgan she’rlar”) – bir necha tankalarning zanjir shaklida bog‘lanishidan yuzaga kelgan, 31 bo‘g‘indan iborat she’rlardir. U bir necha shoirlar tomonidan asosan mushoira bellashuvlarida yaratilgan. Renganing ilk misralari eng usta shoirlar tomonidan boshlab berilar va ana shu misralarda ilgari surilgan mavzu doirasida keyingi misralar boshqa shoirlar tomonidan bitilar edi. Aksariyat hollarda ko‘p soatlarga cho‘zilib ketadigan shoirlarning uchrashuvlarida o‘ziga xos ajoyib rengalar to‘qildi. Barcha uchlik va ikkiliklar o‘zaro umumiy mavzu bilan bog‘langan bo‘lsalar-da, mazmun jihatidan bir-biridan farqlangan. Ularning har biri turli tuman mavzularga – manzara tasvirlari bilan bog‘langan muhabbat, ayriliq, yolg‘izlik kabilarga bag‘ishlanar edi. Ular o‘zaro zanjir shaklida bog‘lanib, yengil savol-javob sifatida namoyon bo‘lsalar-da, keyingi keladigan har bir uchlik yoki ikkilikda mavzuning o‘zgartirilishi hamda kutilmaganda so‘zning boshqacha ma’no kasb etishi qadrlanardi. Renga janri XII asrda xuddi adabiy o‘yin, yoqimli ko‘ngilochish usuli kabi yuzaga kelgan bo‘lsa-da, keyinchalik ancha murakkab qoidalariga ega jiddiy bir san’at turiga aylandi. Renga “ushin renga” (“qalb hislariga

Rengada uchlik va ikkiliklarning turli shoirlar tomonidan bitilish an'anasi o'z navbatida beshlikni mavzu va kompozitsiya jihatidan ikkiga bo'linishini tezlashtirdi. Tez orada rengadan ajralib chiqqan uchlik mustaqil she'riy janr sifatida qaror topdi³¹. Yapon she'riyatida uchliklar "kyoku" (tarj. "telbanamo she'rlar") – kulgili va parodiyaga oid she'rlar, "senryu" (janr asoschisi Senryuning ismidan kelib chiqqan holda nomlangan) – kulgili va hazil-mutoyiba she'rlari, "xaykay" (tarj. "kulgili she'rlar") – dastlab, hajviy she'riyat, so'ng asosan tabiat to'g'risidagi lirik she'rlar kabi bir necha ko'rinishlarda qo'llanilgan³².

Faqat xaykaygina Genroku davri she'riyatining markaziy janriga aylana oldi. Ilk xaykaylarning mualliflari renga sohasida ijod qilgan shoirlar bo'lib, ularda hali hanuzgacha o'rta asr mumtoz she'riyatining an'analari kuchli sezilib turar, bu esa xaykayni mustaqil o'zlashtirishni xohlasa-da, chuqur bilimlariga ega bo'lmagan oddiy xalq orasida she'riyatning keng ommalashuviga to'sqinlik qilar edi. Biroq XVII asrdan boshlab mamlakatning yirik shaharlarida zodagondan tortib oddiy savdogargacha she'riyat, xususan, xaykay ilmi va uning sir-sinoatlaridan saboq beruvchi maktablarning yuzaga kelishi mazkur holatga yakun yasadi. "Teymon", "Danrin" ("Pand-nasihati o'rmoni") va "Shyofu" ("Sof") she'riyat maktablari ushbu davrda xaykay janrining gullab-yashnashida, uning tabaqachilik hamda elitarlik doiralari oshib o'ta olishida asosiy rol o'ynadi.

Renga she'rlaridan ajralib chiqishining ilk pallalaridayoq xaykay ijodkorlari orasida yuzaga kelgan bir-biriga zid qarashlar ularni ikki guruhga bo'linishiga sabab bo'ldi. Birinchi guruh shoirlari xaykayga mavjud o'rta asr she'riyati an'ana va qonuniyatlarini olib kirib, uni jiddiy rengalar darajasiga olib chiqishga urinsalar, ikkinchi guruh vakillari esa, aksincha, xaykayda an'anaviy san'at qonuniyatlaridan holi, hayotiy vaziyatlar, kulgi, oddiy xalq iboralari bilan ifodalangan va barchaga tushunarli she'riyatni ko'rishga intildilar. Ushbu qarashlar "Teymon" va "Danrin" she'riyat maktablari orasidagi tafovutni belgilab berdi.

Yuqorida nomi zikr etilgan shoir Matsunaga Teytoku (1572-1653) tomonidan 1619-yilda Kioto shahrida asos solingan ilk va eng yirik "Teymon" xaykay she'riyati maktabi birinchi guruh qarashlarini ilgari surdi. Teytoku xaykayni renga yaqinlashtirdi va hatto unga didaktik ruh bag'ishlashga harakat qildi³³. Bundan tashqari, ushbu janrlar o'rtasidagi tafovutni ko'rsatib berdi. Teytokuning fikricha, an'anaviy mavzular va she'riyat qonunlariga bo'ysunuvchi rengadan farqli ravishda, uni boshqa she'rlardan ajratib turuvchi jihati kulgi bo'lgan xaykayda kulgili xalq iboralari ("xaygon"), vulgarizm hamda xitoycha so'zlarni bemalol qo'llash mumkin edi. Xaykayni renga yaqinlashtirar ekan, Teytoku uni mukammallashtirishga va haqiqiy shoirga munosib mashg'ulot sifatida qaror toptirishga harakat qildi. Teytoku maktabi 260 dan ortiq xaykay to'plamlarini nashr ettirib, XIX asrgacha sermahsul faoliyat olib bordi. Umuman olganda, "Teymon" maktabi xaykayni tartibga solib, uni mumtoz she'riyat an'analari o'zaniga

ega"), ya'ni jiddiy hamda nafis yoki "mushin renga" ("qalb hislariga ega bo'lmagan") hajviy renga kabilarga ajratilgan. (Batafsilqarang: O'sha manba. – S. 85-88.)

³¹ Mumtoz she'riyatidagi yuksak uslubdagi – "ushin renga"lardan so'ng, bir joyda yig'ilgan shoirlar barcha belgilangan qonun-qoidalarga rioya qilgan holda ko'ngilochoq uchun "mushin rengalar"ni bitishgan. Ushbu zakovat bellashuvlarida so'z o'yni, grotesk, kulgili vaziyatlar, parodiya, shama-ishora bir-birini o'rniga kelar edi. Kulgili rengalar ikkinchi darajali she'r hisoblanganligiga qaramay, shaharliklar orasida keng tarqaldi. Ushbu kulgili "mushin renga"lardagi uchliklarning alohida ajralib chiqishidan yuzaga kelgan xaykay esa tez orada yapon nazmidan tankalarga teng kela oladigan markaziy she'riy janrga aylandi (Batafsilqarang: Kin D. Yaponskaya literatura XVII-XIX stoletiy. Nauka. Moskva. 1978. – S. 10.).

³² Breslav T.I. Matsuo Bashyo. M., Nauka, 1981. – S. 5.

³³ Chamberlain B.H. Japanese Poetry. L., 1960. – P. 171.

yo'naltirgan holda konservativ qarashlarni ilgari surdi. Bunda Teytokuning xaykay she'riyatiga bag'ishlangan nazariy asarlari dasturulamal bo'lib xizmat qildi.

Shoir Nishiyama Soin (1605-1682) tomonidan yaratilgan "Danrin" maktabi (1675-1685) ikkinchi guruh ortidan, ya'ni she'riyatni yanada yangilash yo'lidan bordi. Maktabning novator shoirlari faoliyati xaykay san'ati rivojida katta ahamiyat kasb etdi. Ular an'anaviy qonun-qoidalarga mavzu va badiiy ifoda vositalari tanlovida ijodkorning erkinligini qarshi qo'ydilar. Xaykay she'rlari uchun materialni oddiy shaharliklar hayotidan topdilar va ko'pincha ular orqali kundalik turmush manzaralarini aks ettirdilar. "Teymon" maktabidan farqli o'laroq, "Danrin" maktabi she'rning texnik mukammalligiga emas, balki voqelikni to'g'ridan-to'g'ri va tashqari ta'sirlarsiz o'z-o'zidan idrok qilishga intildi. She'rning ta'sirchanlik va yorqinligiga erishishni maqsad qilgan holda, asosiy e'tibor kulgili so'z va so'z birikmalariga yo'naltirildi. Ijodni kishanlab qo'yadigan barcha qonun-qoidalardan voz kechishga chaqirdilar va she'rdagi bo'g'inlar miqdorini xohlagancha uzaytirdilar yoki kamaytirdilar. Bir asarning o'zida yuksak va past uslublarni mujassamlashtirgan holda mumtoz she'riyatning usul va mavzularini parodiya qildilar. Xususan, shu munosabat bilan "Danrin" maktabi xaykayni uslub jihatidan barchaga tushunarli, mazmun jihatidan esa asosan kulgili bo'lgan grotesk she'riyati sifatida qabul qiladi", deydi N.I.Konrad³⁴.

Biroq xaykayga bo'lgan munosabat tez orada tubdan o'zgardi. "Danrin" maktabi she'riyatining sayoz mazmuni, kichik mavzulari, tasvirda naturalizm unsurlarining ustunligi – bularning barchasi Ito Shintoku (1633-1689) va Kamijima Onitsura (1661-1738) kabi maktabning yetuk vakillarini tashvishga sola boshladi. Ular xaykayga jiddiylik bag'ishlashga, ushbu shaklda tanka va renga she'riyat an'alarini qayta tiklashga urindilar. Shu asnod, o'sha davr ijodiy doiralarida o'tmishning yuksak san'ati an'alariga murojaat qilish tamoyili yana kuzatildi.

Xaykay she'riyatida tub islohotlarni amalga oshirish masalasiga Matsuo Bashyo (1644-1694) jiddiy kirishdi va taxminan 1677-yilda "Shyofu" xaykay maktabiga asos soldi. Bashyoning yapon she'riyatidagi yangiligi "Danrin" maktabi vakillari intilganidek she'riyat qonun-qoidalardan voz kechishga emas, balki an'analarga qaytishga asoslanadi. U yangiliklarni an'analarga ehtiyotkorona va ijodiy yondashuv bilan uyg'unlashtirgan holda xaykayni so'z o'yinidan shoirning nozik his-tuyg'u, o'y-xayollarini ifodalovchi vositaga, jiddiy va mohiyatan o'z davrining yetakchi she'riy janriga aylantirdi. Chuqur falsafiy mazmun bilan to'ldirilgan Bashyoning lirikasi inson ichki dunyosiga qaratilgan jiddiy e'tibori, tabiat hodisalarining mohiyatiga yetishga intilishi bilan hayot va insonga muhabbat nuqtayi nazaridan voqelikni anglash masalalariga yechim topadi³⁵. Uning ijodida oddiy odamlar kundalik hayotida uchraydigan hodisalar yanada baland ovozlarda jarangladi.

Genroku davri teatr san'ati va dramaturgiyasida ham she'riyat sohasida kechgan jarayonlarga o'xshash vaziyat kuzatiladi. XVII asr Yaponiyada imperator saroyi rasmiy marosimlari va yirik ibodatxonalaridagi bayram tomoshalarining ajralmas qismiga aylangan "gagaku" – "musiqali-xoreografik san'ati"ning izchil ishlab chiqilgan qat'iy shakllari qaror topgan edi. Teatr san'atining yana bir muhim turi bu davrga kelib to'liq shakllanib ulgurgan No³⁶

³⁴ Konrad N.I. Yaponskaya literatura. M., 1974. – S. 55.

³⁵ Matsuo Bashyo estetikasining qonun-qoidalari va badiiy ifoda vositalari (assotsiativ tagmatn, obrazlar tizimi, badiiy uslubi) to'g'risida qarang: T.I. Breslaves "Poeziya Matsuo Basyo". M., 1981. – 152 s.

³⁶ No (tarj. "mahorat, iste'dod") – XIV asrda yuzaga kelgan va bir pardali lirik dramalar ijro etiluvchi ilk yapon teatri. Bitta syujetga bo'ysungan No teatri pyesalaridagi voqealar raqs, musiqa va kuy ijro etish bilan chambarchas

teatri sanalib, shyogun, daymyo va amaldor saroy ayonlari qarorgohlaridagi har qanday muhim hodisa mazkur teatrning tantanali namoyishlarisiz o'tmagan. Shahar teatr madaniyatining rivojlanishida fars miniatyuralari – “kyogen”³⁷ alohida ahamiyat kasb etdi. Bundan tashqari, xalq orasida “jyoruri-katari”³⁸ deb nomlangan “qo'shiqchi-hikoyachilar” katta shuhrat qozongan bo'lib, ular asosan udni yodga soluvchi uch torli musiqiy asbob – shamisen³⁹ jo'rligida qadimgi rivoyatlarni keng omma orasida yoyilishiga xizmat qildi⁴⁰.

XVII asrning boshiga kelib, jyoruri-qatarilarning chiqishlari qo'g'irchoq tomoshalari bilan uyg'unlikda olib boriladigan bo'ldi. Qo'shiqchi-hikoyachilar qadimgi rivoyatlarni o'ziga xos ohang bilan quyga solib ijro qilar, qo'g'irchoqbozlar esa uni tasvirlab berar edi. Shunday qilib, mazkur davrga kelib Yaponiyada qadimgi shahar madaniyatining o'ziga xos va ajoyib yutuqlaridan biri – “ningyo jyoruri” qo'g'irchoq teatri yuzaga keldi⁴¹. Dastlab, teatr binolari va hatto vaqtinchalik insho etilgan tomoshaxona yoki maydonlar mavjud bo'lmagani tufayli, hikoyachi va qo'g'irchoqbozlar odatda tomoshalarini ochiq havoda, to'g'ri kelgan joyda olib borishga majbur bo'lgan.

Ningyo jyoruri qo'g'irchoq teatri bilan bir vaqtning o'zida boshqa teatr janri – “kabuki”⁴² yuzaga keldi. Dastlab, No teatri va kyogen pyesalarining soddalashtirilgan variantlarini ijro etish bilan o'z faoliyatini boshlagan kabuki raqs va qo'shiqlar, bayramona o'yin-kulguga aylanib ketuvchi diniy ruhdagi va sehrli voqea-hodisalarni aks ettiruvchi pardalar, xalq latifa va askiyalarini o'zida umumlashtirdi. Kabuki xalq qo'shiq va o'yinlarini o'zida mujassamlashtirgan teatr bo'lishi bilan bir qatorda xalq kayfiyatini aks ettiruvchi san'at turiga aylandi⁴³.

Osaka, Kioto, Edo va boshqa shaharlarning odatda sershovqin ko'chalariga qo'shni hududlarda joylashgan maxsus teatr dahalari yuzaga kelgan bo'lib, u yerda o'ndan ortiq teatr faoliyat yuritdi. Teatr binolarining qurilishida ham ahamiyatli siljishlar kuzatildi. Agar XVII

bog'langan edi. Taraqqiyoti davomida mazkur teatr mukammallashib bordi, izchil ishlab chiqilgan estetikasiga, ajoyib aktyor va iste'dodli dramaturglariga ega elitar san'at turiga aylandi. Yuqori qatlam vakillariga qaratilgan No teatri spektakllarida hashamatli liboslar va san'at namunasi bo'lgan ajoyib niqoblarda ulug'vor hamda juda sekin harakatlanuvchi, qo'shiq ijrosi orqali so'zlovchi aktyorlar qadimgi yapon va xitoyning mashhur qahramonlari, go'zal ayollari, iloh, ruh va iblislarni gavdalantirgan. No teatri pyesalari murakkab tili va syujeti bilan oddiy xalqdan yiroq bo'lganligiga qaramay, yapon teatrining keyingi rivojiga ahamiyatli darajada ta'sir qo'rsatdi (No teatri haqida batafsil: Konrad N.I. *Izbrannye trudy. Literatura i teatr. Nauka, Moskva. 1978. – S. 322-341*).

³⁷ Hukmron sinflar No teatri spektakllaridan bahramand bo'layotgan bir paytda, xalq o'z did va talablariga javob bera oladigan tomosha turlarini yaratdi. XIV asrda kulgi va hazil-mutoyiba bilan to'ldirilgan kichik hajviy pyesa – “kyogen” (tarj. “telbanamo so'zlar”) yuzaga keldi va tez rivojlanib bordi. Ushbu pyesalar keskin satiraga yo'naltirilgan bo'lib, mag'rur, ammo aslida qo'rqqoq samuraylar, ochko'z va xasis ruhoniylar shahar dramaturgiyasidagi ushbu ilk tajribalarning doimiy tasvir obyekti hisoblangan. (Kyogen haqida batafsil: Bowers F. *Japanese Theatre. Literary Licensing, LLC, 2013. P. 62-64.*; Chxartishvili G. (red.). *Yaponskiy teatr. SPb., 2000. – S. 7-15.*; Anarina .N.G. *Istoriya yaponskogo teatra : drevnost i srednevekovye: skvoz veka v XXI stoletie. M., 2008. – S. 299-310.*).

³⁸ “Jyoruri-katari” (tarj. “jyoruri hikoyachilari”) atamasi bosh qahramoni Jyoruri ismli qiz bo'lgan qadimgi yapon rivoyatidan olingan bo'lib, unda go'zal qizning sarkarda Yoshitsunega bo'lgan muhabbati to'g'risida hikoya qilinadi. Mazkur rivoyat shaharlik-tinglovchilar orasida juda mashhur bo'lgan va “jyoruri” so'zi asta-sekin umumlashtiruvchi ma'no kasb eta boshlagan. Natijada, shyamisen jo'rligida rivoyatlarni hikoya qilib beruvchi qo'shiqchi-hikoyachilar “jyoruri hikoyachisi” degan umumiy nom bilan ataladigan bo'ldi (Batafsil qarang: Kujel Yu.L. *Yaponskiy teatr Ningyo Dzyoruri. M.; Ripol-Klassik, 2004. – S. 15-28.*).

³⁹ Shyamisen – uch torli cholg'u asbobi. Biva, koto va shyakuxachi kabilar bilan birgalikda milliy yapon torli cholg'u asboblarning asosini tashkil etadi.

⁴⁰ Jukov A.Ye. (Otv. red.) *Istoriya Yaponii. Tom 1. S drevneyshix vremen do 1868 g. M., 1998 – S. 533.*

⁴¹ Gundzi M. *Yaponskiy teatr kabuki. M.: Progress, 1969. – S.42-43.*

⁴² “Kabuki” so'zi uch xitoy ieroglifidan tashkil topgan bo'lib, “ka” – qo'shiq, “bu” – yapon milliy raqsi, “ki” – mahorat degan ma'noni anglatadi (Kabuki haqida batafsil: Konrad N.I. *Izbrannye trudy. Literatura i teatr. Nauka, Moskva. 1978. – S. 342-358.*; Gundzi M. *Yaponskiy teatr kabuki. M.: Progress, 1969. – S. 16-32.*).

⁴³ Grishelva L.D. *Teatr sovremennoy Yaponii. M., 1977. – S. 48-50*

asrning boshida sahna maydonlari ancha nomukammal bo'lgan bo'lsa, Genroku yillariga kelib o'ta sodda tomosha binolari asta-sekin haqiqiy teatr binolariga aylanib bordi.

Jyoruri va kabuki teatri o'rtasida tinimsiz raqobat – tomoshabinlar orasida shuhrat qozonish yo'lidagi kurashlar davom etdi. Tarozi pallasi goh u tomonga, goh bu tomonga og'di. Genroku davrida ustunlikni qo'g'irchoq teatri qo'lga kiritdi. Jyoruri ilk marotaba teatrga sahna pardalarini olib kirdi, dekoratsiya, to'laqonli teatr rekvizitlari yuzaga keldi. Spektakllarning texnik bezaklari bosqichma-bosqich murakkablashib bordi. Agar dastlab qo'g'irchoqbozlar parda ortida ishlagan bo'lsalar, teatr rivojlanib borishi bilan ushbu “maskirovka uchun xizmat qilgan vositalar” bekor qilindi⁴⁴. Qo'g'irchoqbozning sahnada qo'g'irchoqlar bilan uyg'unlashib, mahoratli harakatlanishi o'z navbatida ularning san'atkor sifatidagi mavqeini oshishiga sabab bo'ldi. Jyoruri teatrida “gidayu” nomi bilan atala boshlagan qo'shiqchi-hikoyachilar ham qo'g'irchoqbozlar kabi sozandalar bilan birga tomoshabinlarning ko'z o'ngida, ya'ni sahnaning o'ng tarafidan joy oldi. Keyinchalik kabuki teatri ham qo'g'irchoq teatridan ushbu yangiliklarni o'zlashtirdi.

Shaharliklar orasidan yetishib chiqqan aktyor, qo'shiqchi-hikoyachilar, qo'g'irchoqboz, sozandalardan tashkil topgan yangi san'atkorlar sinfi shakllandi. Xususan, o'sha davrning xalq suygan san'atkorlari sifatida kabuki aktyorlaridan Ichikava Danjyuro I (1660-1704), Sakata Tojyuro (1647-1709), jyoruri qo'shiqchi-hikoyachilaridan Satsuma Jyoun (1593-1711), Uji Kaganoyjo (1635-1711), Takemoto Gidayu (1651-1714) kabilarni misol o'rnida keltirish joiz. Rollar va pyesa matnlarini ijro qilishining yangi, o'ziga xos uslublari aynan ushbu iste'dod egalari faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Biroq ular qanchalik mahoratli bo'lmasin, jyoruri va kabuki teatrlari haqiqiy yirik drama yuzaga kelgandagina o'z taraqqiyotining yuqori cho'qqilariga erishdi. Chunki qo'g'irchoq teatrlarining dramalari “hali ham shakllanish jarayonini boshidan kechirayotgan bo'lib, asosiy e'tibor dialogga emas, balki vaziyatning qo'g'irchoqboz tomonidan qay darajada mahorat bilan tasvirlashiga qaratilgan”, kabuki dramalari esa “qo'shiq va dialogga qurilgan bo'lib, spektaklning muvaffaqiyati bitilgan matnga emas, aktyorning omadli improvizatsiyasiga bog'liq bo'lgan”⁴⁵. Bu dastlabki pyesalarning professional dramaturglar tomonidan emas, balki bevosita aktyor va qo'shiqchi-hikoyachilar tomonidan yaratilganligi bilan izohlanadi. Genroku davrida aktyor-dramaturg an'anasidan chekinish, teatr va dramaturg o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yilishi jyoruri va kabuki teatrlarining yuksak san'at turiga aylanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Genroku davri tomoshabinlari o'tkir syujetli, kuchli taassurot qoldirib, ko'zlarni yoshlantiruvchi, fojiali voqealarni hayajonli vaziyatlar bilan o'zaro bog'lovchi dramatik asarlar hamda ta'sirchan sahnalar, murakkab va jumboqli to'qnashuvlarni xush ko'rar edilar. Aynan ana shu talabga javoban dastlab, “jidaymono” – “tarixiy dramalar” yuzaga keldi⁴⁶. Tarixiy dramalarda dramaturglar o'tmishning zodagon, feodal va buyuk sarkardalari to'g'risidagi tarixiy voqealarni o'ta shartli ravishda tasvirladilar. Biroq qonli qasos, shafqatsiz ichki urushlar, ziddiyatli to'qnashuvlar kabilarning barchasi aslida oddiy odamning kundalik hayotida uchramaydigan hodisalar hisoblangani tufayli, tarixiy dramalar shaharliklar diqqatini uzoq ushlab tura olmadi. Endi ular teatr sahnalarida haqiqiy hayotni, uning qahramonlari sifatida esa o'zlariga o'xshash oddiy odamlarni ko'rishni xohladilar. Ham kabuki, ham jyoruri uchun pyesalar yaratgan, o'z davrining iste'dodli dramaturgi – Chikamatsu Monzaemon (1653-1724)

⁴⁴ Markova V., Lvova I. Predisloviye. – Monzaemon Tikamatsu. Драммы. – М., “Iskusstvo”, 1963. – S.14-15

⁴⁵ Kin D. Yaponskaya literatura XVII-XIX stoletiy. Nauka. Moskva. 1978. – S. 164

⁴⁶ Goreglyad V.N. Preds. Strana za zaxlopnutoy dveryu. – Kirkvud K.P. Renessans v Yaponii. M., 1988. – S. 14.

mazkur vazifaning uddasidan chiqdi va yapon teatr san'atiga birinchi bo'lib "sevamono" – "haqiqiy hayot to'g'risidagi dramalar" deb ataluvchi maishiy dramalarni olib kirdi⁴⁷.

Dramaturg pyesalari uchun syujet va obrazlarni qadimgi yapon xronikalari, romanlari, teatr pyesalari, ertaklar to'plamlari, zamonaviy qissa, novellalari va kundalik hayotning o'zidan oldi. To'qsonga yaqin tarixiy, yigirmadan ortiq maishiy dramalari bilan teatr pyesalarining janr chegaralarini kengaytirdi. Pyesalariga jamiyatning barcha qatlamlariga xos jonli tilni dadillik bilan kiritgan holda yapon xalqchil dramaturgiyasiga asos soldi.

Yapon shahar madaniyati gullab-yashnagan Tokugava davrida uchinchi qatlamda yetishib chiqqan yangi yozuvchilar avlodi o'z e'tiborini shaharliklarning qiziqishlari, tashvishlari bilan bog'liq masalalarga qaratdi va shaharliklarning did hamda talablariga javob bera oladigan asarlarni adabiyot sahifalariga olib kirdi. Tokugava davrida mavjud bo'lgan barcha san'at turlarida Yaponiyaning yirik shaharlari va unda istiqomat qiluvchi jamiyat hayoti tafsilotlari bilan tasvirlandi.

⁴⁷ O'sha manba. – B. 14.